



## O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA ISHBILARMONLIK FAOLIYATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI

**Nabiyeva Nilufar**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2833-3689

[n.nabieva@tsue.uz](mailto:n.nabieva@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va ishbilarmonlik faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasida kichik kadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi nomutanosiblik, eksport salohiyatining pasayishi, hududiy tafovutlar kabi muammolar qayd etilib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqola kichik biznesni iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, ishbilarmonlik muhiti, iqtisodiy o'sish, YaIM, bandlik, eksport, soliq yuki, kreditlash, investitsiya, hududiy tafovutlar.

## АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Набиева Нилуфар**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье анализируются показатели развития малого бизнеса и предпринимательской деятельности в экономике Узбекистана. В результате анализа были выявлены такие проблемы, как диспропорции в финансировании деятельности малого предпринимательства, снижение экспортного потенциала, региональные различия, и разработаны научно-практические предложения по их устранению. Статья научно обосновывает необходимость развития малого бизнеса как одного из стратегических приоритетных направлений экономической политики.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательская среда, экономический рост, ВВП, занятость, экспорт, налоговая нагрузка, кредитование, инвестиции, региональные различия.

## ANALYSIS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP INDICATORS IN UZBEKISTAN

**Nabieva Nilufar**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article analyzes the development indicators of small business and entrepreneurship in the economy of Uzbekistan. The analysis reveals problems such as imbalances in financing small business activities, a decline in export potential, and regional disparities. Scientific and practical proposals for addressing these issues have been developed. The article provides a scientific basis for the necessity of developing small business as one of the strategic priorities of economic policy.

**Keywords:** small business, business environment, economic growth, GDP, employment, export, tax burden, lending, investment, regional disparities.

## **Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy tizimining eng faol segmentlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu sektor iqtisodiyotda raqobatbardosh muhitni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromad manbalarini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Kichik biznesning rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlari, innovatsion faolligi va jamiyatda tadbirkorlik madaniyatining shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes va ishbilarmonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmogda. Xususan, davlat rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini bosqichma-bosqich oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, shuningdek, hududlarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash ustuvor maqsad sifatida belgilangan (Farmon, 2022).

Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi, kredit-moliya institutlari faoliyatining diversifikatsiyasi hamda tadbirkorlar uchun soliq va litsenziyalash tizimidagi soddalashtirishlar natijasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormogda. Ma'lumotlarga ko'ra kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2024-yil yakunlariga ko'ra, 55 foizdan oshgan bo'lsa, bu sohada band aholining ulushi 77,0 foizdan oshgan (Stat, 2024). Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarish samaradorligi pastligicha qolmogda, kredit resurslariga bo'lgan imkoniyatning cheklangan, raqobat muhiti esa yetarli darajada shakllanmagan.

Bu holatlar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmogda. Shunga asosan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari va ishbilarmonlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish, ularning rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, tarmoqlar va hududlar kesimidagi o'sish tendensiyalari, institutsional islohotlarning amaliy natijalari hamda biznes muhitining sifat ko'rsatkichlari chuqur o'rganiladi. Natijalar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy qarorlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Adabiyotlar sharhi.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'rsatadiki, bu soha nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy omili, balki ijtimoiy barqarorlik va innovatsion taraqqiyotning tayanchi hamdir. Deyarli barcha zamonaviy iqtisodiy nazariyalar kichik tadbirkorlikni iqtisodiyotning faol qismi, ya'ni o'zgarishlarga tez moslasha oladigan sektor sifatida ko'radi. Shu bois, bu yo'nalishdagi xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili O'zbekiston uchun ham katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Schumpeter (1934) tadqiqotida tadbirkorlarni iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etadi. U "ijodiy buzilish" nazariyasi orqali yangi texnologiyalar va mahsulotlarning paydo bo'lishi eskilarini siqib chiqarib, iqtisodiy tuzilmani yangilashini isbotlaydi. Shu g'oya keyingi tadqiqotlar uchun nazariy zamin bo'ldi. Wennekers va Thurik (1999) Yevropa davlatlari misolida tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni statistik jihatdan ko'rsatib, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini miqdoriy asosda isbotlaganlar. Audretsch va Thurik (2001) "tadbirkorlik iqtisodiyoti" modelini ishlab chiqib, kichik innovatsion firmalar yirik korporatsiyalarni to'ldiruvchi emas, balki ularga

raqobatdosh kuch sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar. Smallbone va Welter (2001) esa o'tish iqtisodiyotlarida davlat siyosatining muhimligini ochib beradi: ular kuchli huquqiy baza, shaffof soliq tizimi va moliyaviy infratuzilma mavjud bo'lmagan sharoitda kichik biznesning rivojlanishi sekinlashishini amaliy misollar bilan ko'rsatgan.

McMillan va Woodruff (2002) esa postsovet mamlakatlari tahliliga tayangan holda, tadbirkorlar bozor iqtisodiyotining institutlarini shakllantirishda "quyi qatlamdan" faoliyat yurituvchi kuch sifatida ishtirok etganini aniqlaydilar. Djankov va hamkorlari (2002) esa 85 mamlakatda olib borilgan tadqiqotda ortiqcha rasmiy tartib-taomillar va litsenziyalash to'siqlari yangi biznes subyektlarining shakllanishiga jiddiy to'sqinlik qilayotganini ko'rsatgan. Beck, Demirgüç-Kunt va Levine (2005) kichik va o'rta korxonalar (SME) ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqoriligini isbotlaydilar. Shunga yaqin xulosani Beck va Demirgüç-Kunt (2006) ham beradi: moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi SME sektorining kengayishiga to'sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi.

Klapper, Laeven va Rajan (2006) esa yangi biznesni boshlash jarayonidagi byurokratik murakkabliklar yangi korxonalarining paydo bo'lishini keskin kamaytirishini empirik tarzda aniqlaydi. Ayyagari, Demirgüç-Kunt va Maksimovic (2011) 100 dan ortiq mamlakatda olib borilgan tahlilida yangi ish o'rinlarining katta qismini aynan yosh kichik firmalar yaratishini ko'rsatgan. Ularning fikricha, kichik biznesning ko'pligi o'sishning boshlang'ich bosqichida ijobiy natija bersa-da, barqaror rivojlanish uchun innovatsion yondashuv va sifat omillari muhimroqdir.

Xalqaro moliya institutlarining yirik tadqiqotlari ham bu fikrni mustahkamlaydi. IFC va Jahon bankining (2025) MSME Finance Gap hisobotida kichik bizneslar uchun 5,7 trillion dollarlik moliyaviy bo'shliq mavjudligi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda bu muammo keskin ekanligi qayd etilgan. UNCTAD (2022) tadqiqotida esa kichik biznesning barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishdagi ahamiyati, xususan, bandlik yaratish, gender tengligini kuchaytirish va yashil texnologiyalarni joriy etishdagi roli batafsil tahlil qilingan.

Mahalliy tadqiqotlar esa O'zbekiston tajribasiga tayanadi. A'zamjonova va Axunova (2025) O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning YAIMdagi ulushi 55 foizdan oshgani va bandlikdagi hissasi 74 foizga yetganini tahlil qilgan. Ularning fikricha, bu o'sish davlat siyosatidagi soddalashtirish, soliq imtiyozlari va kredit dasturlari bilan chambarchas bog'liq. Abdiganieva (2024) esa tadbirkorlik faolligini oshirish orqali aholi farovonligini yaxshilash mumkinligini, bu jarayonda ta'lim va infratuzilma islohotlari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Ruzimuratova (2024) ayol tadbirkorlar faoliyatidagi to'siqlarni o'rganib, ularning muvaffaqiyat strategiyalarini aniqlaydi. Sobirova va Bakiyeva (2022) kichik biznesni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlovchi roli, soliq yukining kamaytirilishi va "Har bir oila - tadbirkor" dasturining ijobiy natijalarini qayd etgan. Maripova (2025) kichik biznesning oldida turgan moliyaviy va infratuzilmaviy muammolarni tahlil qilib, mikro kreditlash tizimini kengaytirish hamda biznes inkubatorlarini ko'paytirish zarurligini ta'kidlaydi. Oripov (2024) kichik korxonalarini jahon bozorlariga olib chiqish uchun innovatsion faoliyatni kuchaytirish, marketing ko'nikmalarini oshirish va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozimligini ilgari surgan.

Niyozov (2025) 2019–2024 yillarda O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 42 foizdan 57 foizgacha o'sib, bandlikdagi hissasi ham sezilarli darajada ortganini isbotlaydi. Turg'unboyev (2025) esa "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi korxonalar sonining ko'paygani va soliqlarning kamaytirilishi iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir etganini ko'rsatgan.

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlar kichik biznesni rivojlantirishda institutsional muhit, moliyaviy inklyuziya va innovatsiyalar ahamiyatini urg'ulasa, mahalliy manbalar O'zbekiston misolida islohotlar, infratuzilma va davlat siyosatining natijadorligini ko'rsatadi. Shu asosda, kichik biznes va ishbilarmonlik faoliyatini tahlil qilish mamlakatda barqaror

iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.


### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi gipotezaning nazariy hamda amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Unda tizimli yondashuv, sabab va oqibat bog'liqliklarini tahlil qilish, qiyosiy yondashuv, taqqoslama tahlil hamda dinamik o'zgarishlarni o'rganish kabi ilmiy-uslubiy vositalardan foydalanilgan. Tahlil jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes hamda ishbilarmonlik faoliyati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi roli va eksport tarkibidagi hissasi chuqur o'rganildi. Empirik ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank hamda Jahon bankining rasmiy ochiq ma'lumotlar bazalari tahlil qilindi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishbilarmonlik va investitsion muhitni yaxshilash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida 2024-yil yakunida mamlakat yalpi ichki mahsuloti 1 454 573.9 mln.so'mni tashkil etdi va iqtisodiy o'sish 6,5 foizni, inflyatsiya darajasi esa 9,8% ni tashkil etdi Stat (2024). Davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish jarayonlarining soddalashtirilishi, "yagona darcha" tamoyilining joriy qilinishi, shuningdek, keng ma'nodagi soliq yukini (maqsadli jamg'armalar va nosoliq tushumlarsiz) YalMga nisbatan 27,5 foizdan 25 foizgacha qisqartirish bo'yicha aniq choralar belgilandi Farmon (2022). Yuridik shaxslar soni oxirgi besh yilda 1,5 barobarga oshdi va ularning asosiy qismini kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan o'tkazilayotgan "Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari" natijalari mamlakatda biznes yuritish sharoitlari va iqtisodiy ishonchning izchil o'sayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra, tadbirkorlarning 70 foizdan ortig'i mavjud iqtisodiy muhitdan mamnun ekanini bildirgan hamda o'z faoliyatini kengaytirish rejasini ma'lum qilgan<sup>20</sup>. Bu holat O'zbekistondagi ishbilarmonlik muhitini belgilovchi omillar va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois, tahlilni dastlab soliq yuki ko'rsatkichini o'rganishdan boshlaymiz (1-rasm).




**1-rasm. O'zbekistonda 2010-2024-yillar uchun tor ma'nodagi soliq yuki dinamikasi, foizda.**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining biznes kuzatuvlari tahlili. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Ta'kidlash joizki, tor ma'nodagi soliq yuki indikatorini hisoblashda davlatning maqsadli jamg'armalari va nosoliq tushumlari inobatga olinmaydi, ushbu ko'rsatkich faqat solikli daromadlar – ya'ni davlat byudjetining to'g'ridan-to'g'ri soliqlar va asosiy soliq turlaridan shakllangan qismini o'z ichiga oladi. Shu sababli, tor ma'nodagi soliq yuki davlat byudjetining soliqqa oid real yukini aniq ifodalovchi, lekin barcha majburiy to'lovlarning umumiy hajmini to'liq aks ettirmaydigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Soliq yukining 2010-2024 yillar dinamikasiga qaraganda, O'zbekistonda soliq yukining qisqarishi kuzatilmoqda. Masalan, 2010-yilda tor ma'nodagi soliq yuki 16,1% bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 14,8% gacha pasaygan. Bu jarayon, asosan, soliqlar stavkasining bosqichma-bosqich kamaytirilishi, xususan, 2020-2023-yilda qo'shishilgan qiymat solig'i stavkalarining 20 foizdan, dastlab 15 foiz va 2023-yil 1-yanvardan 12 foizga tushurilishi va ayrim soliqlarni soddalashtirilishi, kichik va o'rta biznes uchun imtiyozlar joriy qilinishi bilan izohlanadi. Uning pasayishi biznes uchun ortiqcha moliyaviy bosimni kamaytiradi, yangi investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantiradi va tadbirkorlik subyektlari foydasining oshishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ishbilarmonlik muhiti va iqtisodiy ishonchni mustahkamlash, biznes muhitining raqobatbardoshligini oshirish, mavjud tadbirkorlik subyektlarining o'sishi va yangilarining paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Endi esa tadbirkorlik faoliyatining makroiqtisodiy jarayonlardagi o'rnini tahlil qilamiz (2-rasm).



**2-rasm. O'zbekistonda 2010-2024 yillar uchun kichik biznesning iqtisodiyotdagi asosiy ko'rsatkichlardagi ulushi, foizda [22].**

**Manba:** Stat (2024). O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Tahlil ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, 2015–2024 yillar davomida kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni barqaror saqlanib kelmoqda. Masalan, kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2015-yilda 56,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich yuqori darajada saqlanib, 2024-yilga kelib 55,7 foizga teng bo'ldi. Bandlikda esa kichik biznes ulushi 2015-yildagi 78,2 foizdan 2024-yilda 77,7 foizgacha biroz pasaygan bo'lsa-da, umumiy bandlikning asosiy qismini ta'minlab kelmoqda. Kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 2015-yilda 25,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 23,8 foizni tashkil etgan. Importdagi ulush esa 37,2 foizdan 40,7 foizgacha oshgan. Ushbu tendensiyalar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida yetakchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Biroq eksport ulushidagi biroz pasayish va bandlikdagi qisqarish kichik biznesda yangi imkoniyatlar ochish va qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, bu natijalar O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitining barqarorligini va kichik biznes uchun qulay sharoitlar yaratilayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval.


## O'zbekistonda 2010-2024-yillarda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulishi tahlili (%).

Ko'rsatkichlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotlari (xizmatlari) dagi ulushi, (%)	26,6	28,6	29,7	33,0	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,4	26,0	27,0	32,4
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq mahsulotirini (xizmatlarini) ishlab chiqarishdagi ulushi, (%)	97,4	97,2	97,2	97,3	97,5	98,0	98,6	98,5	98,3	97,9	96,7	96,0	94,8	94,6	95,2
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi, (%)	52,5	67,6	70	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	70,6	72,5	72,5	71,5	78,6	76,5
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi, (%)	85,1	86,7	87,3	86,6	86,3	87,1	89,6	88,4	86,3	83,6	82,3	86,2	84,7	83,4	84,0
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi, (%)	56,1	55,6	56,0	56,2	59,1	60,2	63,2	58,3	56,0	53,2	51,8	51,7	49,4	56,8	57,0
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi, (%)	39,1	41,2	41,5	44,0	47,9	50,1	53,7	54,2	55,5	54,4	51,6	42,9	47,4	50,3	50,4
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi, (%)	67,0	70,0	69,0	70,6	72,6	72,3	75,7	76,8	79,6	76,5	75,8	72,4	72,4	75,1	75,1
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi, (%)	33,4	37,3	39,7	36,7	39,6	40,3	40,9	38,1	38,0	44,3	46,0	45,6	47,9	49,6	51,8

**Manba:** Stat (2024). O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda so'nggi yillarda ishbilarmonlik muhiti barqaror va qulay saqlanib qolmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotning deyarli barcha asosiy tarmoqlaridagi ulushi yuqori bo'lib, bu tadbirkorlik uchun yaratilayotgan sharoitlarning yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Xususan, kichik biznes subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2010-yildagi 26,6 foizdan 2024-yilda 32,4 foizgacha oshgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xizmatlari ishlab chiqarishdagi ulushi esa doimiy tarzda yuqori bo'lib, 2024-yilga kelib 95,2 foizni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, kichik biznesning qurilish sohasidagi ulushi 2010-yildagi 52,5 foizdan 2024-yilda 76,5 foizga yetgan. Bu esa kichik tadbirkorlik subyektlariga yangi sohalarga kirib borish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va umumiy iqtisodiy muhitga moslashish imkoniyati kengayganini anglatadi. Chakana savdo aylanmasidagi ulush doimiy ravishda yuqori bo'lib, 2024-yilga kelib 84 foizga yetgani esa bozor iqtisodiyoti talablariga moslashayotgan kichik biznesning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Endilikda, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari dinamikasini tahlil qilamiz (3-rasm).



### 3-rasm. O'zbekistonda 2010–2024-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining dinamikasi, (dona).

**Manba:** Stat (2024). O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010–2024 yillar davomida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni izchil oshib borgan va 2023-yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgan. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni ham har yili ko'payib, 2021–2022 yillarda maksimal darajaga yetgan. 2023–2024 yillarda esa ushbu ko'rsatkichda biroz pasayish kuzatiladi, biroq, yangi tashkil etilayotgan subyektlar soni avvalgi yillarga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Bu tendensiyalar O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitining jadal yaxshilanayotganini, kichik biznes uchun ochiqlik va imkoniyatlar kengayib borayotganini anglatadi deyish mumkin (3-rasm).

Ko'rsatilayotgan xizmatlar, yuk tashish va investitsiyalardagi ulushlarning ham yildan-yilga barqaror saqlanishi, kichik biznes subyektlari uchun davlat tomonidan qulay va barqaror ishbilarmonlik muhitining yaratilganini tasdiqlaydi. Bularning barchasi O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay infratuzilma, muvozanatli davlat siyosati va raqobat muhitining shakllanganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, kichik biznes uchun barqaror o'sish va rivojlanish imkoniyatlari tobora kengaymoqda, bu esa ishbilarmonlik muhitining doimiy yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

## 2-jadval.

## O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar (mlrd. so'm)

Iqtisodiyot tarmoqlari	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami <i>shu jumladan:</i>	55430,0	48389,7	59 552,1	69770,3	73 009,4	92 424,8
Sanoat	19087,9	15402,1	14 632,7	20312,1	19 423,4	23 590,0
Qishloq xo'jaligi	9503,3	6854,7	9 814,5	6313,2	7 879,4	14 557,5
Qurilish	4489,3	3167,7	3 786,4	6944,2	6 439,6	7 010,3
Savdo va umumiy ovqatlanish	7005,1	9386,0	15 536,9	17159,8	18 905,2	30 636,7
Transport va kommunikatsiya	2558,1	4390,6	2 832,0	8942,9	6465,5	4 600,8
Jismoniy shaxslar	4906,3	3602,1	6 830,0	9094,3	9495,2	6 346,5
boshqa	7880,0	5586,5	6 119,6	1003,5	4401,2	5 683,1

**Manba:** Byulleten (2010-2024). O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2019-2024 yillar davomida kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar hajmida umumiy o'sish kuzatildi, biroq 2020-yilda bu ko'rsatkichda keskin pasayish sodir bo'lganini ko'rish mumkin. Jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun jami kreditlar hajmi 2019-yilda 55 430,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 43 889,7 mlrd so'mgacha qisqargan. Ushbu pasayishni, COVID-19 pandemiyasi davrida iqtisodiy faollikning keskin susayishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi cheklovlar, tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlari va to'lov qobiliyatining pasayishi bilan izohlash mumkin. Xuddi shunday, sanoat sohasida ajratilgan kreditlar hajmi 2019-yilda 19 087,9 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 15 402,1 mlrd so'mga qisqargan. Qishloq xo'jaligida bu ko'rsatkich 2019-yilda 9 503,3 mlrd so'mdan 2020-yilda 6 854,7 mlrd so'mga, qurilishda esa 4 489,3 mlrd so'mdan 3 167,7 mlrd so'mga kamaygan. Savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ida kreditlar 7 005,1 mlrd so'mdan 9 386,0 mlrd so'mga biroz oshgan bo'lsa, transport va kommunikatsiya sohasida esa 2 558,1 mlrd so'mdan 4 390,6 mlrd so'mga o'sish kuzatilgan. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar 4 906,3 mlrd so'mdan 3 602,1 mlrd so'mga qisqargan.

Biroq, 2021-yildan boshlab kreditlash hajmi yana o'sishni boshlaganini ko'rish mumkin. Xususan, jami kreditlar 2021-yilda 59 552,1 mlrd so'mga, 2022-yilda 69 770,3 mlrd so'mga, 2023-yilda 73 009,4 mlrd so'mga va 2024-yilda 92 424,8 mlrd so'mga yetgan. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va tiklanish jarayonining boshlanganini, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati o'z natijasini berganini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.**

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va ishbilarmonlik faoliyati so'nggi o'n yillikda barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 55,7 foiz, bandlikdagi hissasi 77,7 foiz, eksportdagi ulushi 23,8 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi esa 51,8 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2024-yilda tor ma'nodagi soliq yuki 14,8 foizgacha pasaygan, bu esa biznes uchun moliyaviy yukning yengillashganini ko'rsatadi. 2019–2024 yillarda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi 55,4 trln so'mdan 92,4 trln so'mgacha oshgan. Bu natijalar ijobiy bo'lishiga qaramasdan, ayrim tizimli muammolar haligacha saqlanib qolmoqda:

*Birinchidan. Kichik biznesni moliyalashtirishda nomutanosibliklar mavjud. Tahlil natijalariga ko'ra, 2020-yilda kichik biznesni moliyalashtirish hajmi pandemiya sharoitida 55,4*



trln soʻmdan 43,9 trln soʻmgacha keskin kamaygan. Shundan soʻng oʻsish qayta tiklangan boʻlsa-da, ayrim tarmoqlar (qishloq xoʻjaligi, transport va xizmat koʻrsatish) boʻyicha kredit ulushi yetarli darajada oshmadi. Masalan, 2024-yilda ajratilgan jami 92,4 trln soʻm kreditlarning atigi 14,5 trln soʻmi qishloq xoʻjaligiga va 4,6 trln soʻmi transport sohasiga toʻgʻri kelgan. Buning uchun, kichik biznes uchun tarmoq kesimidagi kredit siyosatini diversifikatsiya qilish, yaʼni xizmatlar va transport sektoriga yoʻnaltirilgan kredit ulushini kamida 25 foizgacha yetkazish maqsadga muvofiq boʻladi. Shu bilan birga, samarali mikrokreditlash mexanizmini joriy etish, kichik korxonalariga garovsiz mikrokreditlar (300 mln soʻmgacha) ajratish hamda ayol va yosh tadbirkorlar loyihalarini foiz stavkasi 12–14% oraligʻida moliyalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

*Ikkinchidan. Eksportdagi kichik biznes ulushi pasayib bormoqda.* Kichik biznesning eksportdagi ulushi 2015-yildagi 25,6 foizdan 2024-yilda 23,8 foizgacha kamaygan. Bu pasayish ichki bozorning toʻyinganligi, tashqi savdo logistikasidagi cheklovlar va sertifikatlashtirish xarajatlarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Fikrimizcha, kichik biznesning eksportdagi ulushini 2026-yilgacha 27–28 foiz darajaga qaytarish uchun “Eksportchi tadbirkor” dasturini joriy etish lozim. Dastur doirasida eksport korxonalari uchun logistika xarajatlarining 15 foizigacha subsidiyalar berish, eksport sugʻurtasi mexanizmini soddalashtirish va sertifikat olish xarajatlarining 50 foizini davlat tomonidan qoplash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, eksportga moʻljallangan kichik ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus soliq imtiyozlari joriy etilishi ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi.

*Uchinchidan. Hududiy iqtisodiy tafovutlar saqlanib qolmoqda.* Tahlilga koʻra, kichik biznesning YAIMdagi ulushi oʻrtacha 55,7 foizni tashkil qilgan boʻlsa-da, bu koʻrsatkich Toshkent shahrida 60 foizdan yuqori, ayrim viloyatlarda esa 45 foizdan past. Qishloq xoʻjaligi sektorida kichik tadbirkorlik ulushi yuqori (95,2%), ammo sanoat va xizmat koʻrsatish tarmoqlarida bu daraja mos ravishda 32,4% va 57,0% atrofida qolmoqda. Buni bartaraf etish uchun, “Hududiy tadbirkorlikni ragʻbatlantirish dasturi”ni ishlab chiqish zarur. Unga muvofiq, ishlab chiqarish salohiyati past tumanlarda yangi korxonalar ochgan tadbirkorlarga 3 yil muddatga foyda soligʻidan ozod etish hamda mahalliy infratuzilma xarajatlarining 30 foizini davlat tomonidan qoplash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, 2025–2027-yillarda kichik biznesning sanoat tarmogʻidagi ulushini 35 foizga yetkazish maqsadli koʻrsatkich sifatida belgilanishi lozim.

Oʻylaymizki, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yanada ortib, hududlar oʻrtasidagi tafovutlar qisqaradi. 2027-yilga kelib kichik biznesning YAIMdagi hissasi 60 foizga, sanoatdagi ulushi 35 foizga, eksportdagi hissasi esa 28 foizga yetishi kutiladi. Bu esa mamlakatda barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlab, ishbilarmonlik muhitining raqobatbardoshligini yanada kuchaytiradi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Aʼzamjonova, F. A., & Axunova, Sh. (2025). *The role of small business in Uzbekistan's economic development: Current situation analysis and development prospects. Modern American Journal of Business, Economics and Entrepreneurship, 1(2), 313–326.*

Abdiganieva, Z. S. (2024). *Fostering entrepreneurship for advancing the standard of living in New Uzbekistan. American Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2(3), 1–5.*

Audretsch, D. B., & Thurik, A. R. (2001). *What is new about the new economy? Sources of growth in the managed and entrepreneurial economies. Industrial and Corporate Change, 10(1), 267–315.*

- Ayyagari, M., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2011). *Small vs. young firms across the world: Contribution to employment, job creation, and growth*. World Bank Policy Research Working Paper No. 5631.
- Beck, T., & Demirgüç-Kunt, A. (2006). *Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint*. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931–2943.
- Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). *SMEs, growth, and poverty: Cross-country evidence*. *Journal of Economic Growth*, 10(3), 199–229.
- Byulleten (2010-2024). *O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari* [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
- Djankov, S., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). *The regulation of entry*. *Quarterly Journal of Economics*, 117(1), 1–37.
- Farmon (2022). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni*.
- IFC & World Bank. (2025). *MSME Finance Gap Report 2023*. Washington, DC: World Bank Group.
- Klapper, L., Laeven, L., & Rajan, R. (2006). *Entry regulation as a barrier to entrepreneurship*. *Journal of Financial Economics*, 82(3), 591–629.
- Maripova, Sh. (2025). *Current issues and prospects for the development of small business in the Republic of Uzbekistan*. *Economics and Innovative Technologies*, 2025(4), 1–7.
- McMillan, J., & Woodruff, C. (2002). *The central role of entrepreneurs in transition economies*. *Journal of Economic Perspectives*, 16(3), 153–170.
- Niyozov, D. N. (2025). *Small businesses and entrepreneurship in Uzbekistan's economic landscape: A macroeconomic perspective (2019–2024)*. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies*, 3(4), 50–57.
- Oripov, D. (2024). *Globalizing Uzbekistan's small businesses: Prospects and opportunities*. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(6), 19–24.
- Ruzimuratova, D. (2024). *How do women entrepreneurs in Uzbekistan overcome obstacles in setting up and expanding businesses? Intersect: The Stanford Journal of Science, Technology, and Society*, 18(1), 1–14.
- Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- Smallbone, D., & Welter, F. (2001). *The role of government in SME development in transition economies*. *International Small Business Journal*, 19(4), 63–77.
- Sobirova, M. N., & Bakiyeva, I. A. (2022). *Ways of developing small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan*. *Eurasian Research Bulletin*, 15, 26–32.
- Stat (2024). *O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi sayti ma'lumotlari*. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
- Turg'unboyev, B. N. (2025). *Prospects for the promotion of small business and private entrepreneurship*. *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(05), 437–441.
- United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2022). *Entrepreneurship for Sustainable Development: Report of the Secretary-General*. New York: United Nations.
- Wennekers, S., & Thurik, R. (1999). *Linking entrepreneurship and economic growth*. *Small Business Economics*, 13(1), 27–56.